

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Open Access, Peer Reviewed Journal

Scientific Journal



www.innoworld.net

+998 33 0178868



**INNOVATIVE
WORLD**

**ORIENTAL JOURNAL OF
ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH**

**Volume 3, Issue 1
2025**

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:

www.innoworld.net

Andijon-2025

TAHRIRIYAT



Bosh muharrir

Odilov Furkat Umarbekovich

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, PhD

Mas'ul kotib

Axmadjonov Sarvarbek Sodikovich

Andijon mashinasozlik instituti Transport va logistika fakulteti dekani, PhD.

Nashrga tayyorlovchi

Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li – Tahrirlovchi

Raxmonov Akmaljon Axmadjonovich – Texnik muharrir

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Rakhimov Akmal Alisherovich

"Mehnat muhofazasi" kafedrası mudiri, PhD.

Djalilova Turgunoy Abdujalilovna

Andijon mashinasozlik instituti Oliy matematika
kafedrası dotsenti, fizika-matematika fanlari
nomzodi, dotsent

Zaripova Dilnoza Yashinovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti Akusherlik va
ginekologiya kafedrası dotsenti, t.f.n.

Maxsudova Xolisxon Ummatovna

Andijon mashinasozlik instituti, O'zbek tili va
adabiyoti kafedrası mudiri

Mirzayev Toxirjon Saloxetdinovich

Namangan davlat pedagogika instituti «Aniq
fanlar» kafedrası katta o'qituvchisi

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich

Namangan davlat pedagogika instituti "Aniq
fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi



MINTAQAMIZDA JOYLASHGAN AVTOMOBIL VA TEMIR YO'L KESISHMALARI TURLARI, ISHLASH TIZIMLARI

Nasirov Ilhom Zakirovich

Andijon mashinasozlik instituti professori,

Nurdinov Murodali Alijonovich

Andijon mashinasozlik instituti dotsenti,

Yo'ldoshev Abduvosit Azizbek o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti magistranti.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada mintaqamizda joylashgan avtomobil va temir yo'l kesishmalarining turlari hamda ularning ishlash tizimlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Temir yo'l kesishmalari xavfsizlik va transport oqimini samarali boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning turli xillari va har birining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada avtomobil va temir yo'l transportining o'zaro integratsiyasi, xavfsizlik choralari kuchaytirish, signalizatsiya va avtomatlashtirish tizimlarining ishlash tamoyillari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqot transport infratuzilmasini yaxshilash va kesishmalardagi harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Temir yo'l kesishmalari, signalizatsiya, xavfsizlik, konstruktsiya, qo'riqlanmaydigan, qo'riqlanadigan, **avtomatik boshqarish**.

Kirish. Mamlakatimizda aholi sonini ortishi bilan bir qatorda transportga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bois mintaqamizda transportlar soni kundan kunga ortib bormoqda, buni natijasida transport turlari bilan turli hil baxtsiz hodisalar ro'y bermoqda. Xususan avtomobil va temir yo'l kesishmalarida sodir bo'layotgan noxush hodisalar kutub qolishlar, tirbandliklar miqdori ortib bormoqda. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi ishida kesishmalarda sodir bo'layotgan muammolarni kamaytirish maqsadida qo'shimcha chora tadbirlar ishlab chiqish hamda, aholini turmush tarzini yaxshilash va transportga bo'lgan ehtiyojini qondirish va havfsiz tashishga qaratilgan [1-3].

Asosiy qism. Avtomobil va temir yo'l kesishmalari – bu avtomobil yo'li va temir yo'lining bir-birini kesib o'tadigan joylari hisoblanadi. Bunday kesishmalar, odatda, xavfsizlikni ta'minlash uchun maxsus belgi va signalizatsiya vositalari bilan jihozlanadi.

Temir yo'l kesishmalari (yoki chorrahalar) turli omillar, jumladan ularning joylashuvi, qurilish shakli va foydalanish usuliga qarab tasniflanadi. Quyida ularning asosiy tasniflari keltirilgan [4-6]:

1. Kesishish darajasi bo'yicha

a) Bir darajali: kesishmalar temir yo'l va avtomobil yo'li bir xil darajada kesishadi. Bu eng keng tarqalgan ko'rinish bo'lib, asosan kichik yo'l harakati hajmiga ega hududlarda uchraydi.

b)Turli darajali kesishmalar:temir yo'l va avtomobil yo'li bir-birini ustma-ust yoki ostidan kesib o'tadi (ko'prik yoki tonnellar orqali). Bu yuqori harakat xavfsizligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.



a) rasm



b) rasm

2. Harakatni boshqarish usuli bo'yicha:

a):Signalizatsiyasiz kesishmalar:Ushbu kesishmalar kam harakatlanadigan hududlarda bo'lib, xavfsizlik choralari kamroq bo'ladi.

b):Signalizatsiyali kesishmalar, bunday kesishmalarda svetoforlar, shlagbaumlari va boshqa boshqaruv moslamalari mavjud. Ular avtomatik yoki qo'lida boshqarilishi mumkin [7-9].



a) rasm



b) rasm

3. Avtomobil yo'lining turi bo'yicha

a):Shahar ichidagi kesishmalar,Shahar hududida joylashgan bo'lib, odatda piyodalar va avtomobillar uchun xavfsizlik choralariga ko'proq e'tibor qaratiladi.

b):Shahar tashqarisidagi kesishmalar,Qishloq joylarda yoki yo'l transport harakati kam bo'lgan hududlarda uchraydi.



a) rasm



b) rasm

4. Foydalanish ahamiyati bo'yicha

a):Asosiy kesishmalar:Katta yo'llar va asosiy temir yo'l yo'nalishlari kesishgan joylarda bo'ladi.

b):Ikkinchi darajali kesishmalar:Kichik yo'llar yoki yordamchi temir yo'l tarmoqlari bilan bog'liq joylarda joylashadi.



a) rasm



b) rasm

5. Tashkiliy jihatlar bo'yicha

a):Qo'riqlanmaydigan kesishmalar:Harakat qatnashchilarining o'zlari ehtiyot choralarini ko'rishi kerak bo'ladi.

b):Qo'riqlanadigan kesishmalar:Temir yo'l xodimlari yoki avtomatik tizimlar yordamida boshqariladi.



a) rasm



b) rasm

6. O'ziga xos konstruktsiya bo'yicha

a):Ko'priqli kesishmalar:Avtomobil va temir yo'l ko'priklari ajratiladi.

b):Tonnelli kesishmalar:Harakat tunnel orqali o'tadi.




a) rasm



b) rasm

Hozirgi kunda O'zbekiston temir yo'llarida jami 521 ta temir yo'l kesishmasi mavjud bo'lib, shundan 299 tasi qo'riqlanmaydigan va 222 tasi qo'riqlanadigan temir yo'l kesishmalar. Qo'riqlanadigan kesishmalarning 146

tasi temir yo'l kesishmalarini to'sish qurilmasi bilan jihozlangan. Shu jumladan o'ta yuqori tezlikli harakat uchastkalarida 77 ta qo'riqlanadigan temir yo'l kesishmasi mavjud.



Temir yo'l kesishmalarida harakatni boshqarish texnologiyalari

Temir yo'l kesishmalarida harakatni boshqarish texnologiyalari transport xavfsizligini ta'minlash va harakatni samarali tashkil etish uchun juda muhimdir. Bu texnologiyalar temir yo'l va avtomobil yo'llarining o'zaro aloqasini optimallashtirishga, yirik yo'l harakati avariylarini oldini olishga, shuningdek, harakatni yaxshilashga yordam beradi. Quyida temir yo'l kesishmalarida harakatni boshqarish uchun qo'llaniladigan asosiy texnologiyalarni ko'rib chiqamiz [10-13]:

1. Signalizatsiya tizimlari

Avtomatik signalizatsiya tizimlari: Temir yo'l kesishmalarida avtomatik signalizatsiya tizimlari (masalan, svetoforlar) harakatni boshqarishning asosiy vositasidir. Bu tizimlar temir yo'l transporti va avtomobil harakatini o'zaro muvofiqlashtirishga yordam beradi. Signalizatsiya tizimlari to'g'ri vaqt va joyda harakatni to'xtatish yoki davom ettirish uchun ishlaydi.

2. Avtomatik boshqarish tizimlari

Avtomatik manevr boshqaruv tizimlari: Bu tizimlar temir yo'l kesishmalarida temir yo'l va avtomobil transporti o'rtasidagi harakatni avtomatik tarzda boshqaradi. Ular tezlikni, kesishmalardan o'tishni va boshqa harakat parametrlarini boshqarishga yordam beradi.

3. Video monitoring va kuzatuv tizimlari

Kamera va sensorlar: Temir yo'l kesishmalarida joylashtirilgan kameralar va sensorlar yordamida harakat monitoringi amalga oshiriladi. Bu tizimlar kesishmalarda yuzaga keladigan har qanday muammolarni (masalan, signalizatsiyaning ishlamasligi yoki xavfli vaziyatlar) aniqlashga yordam beradi.

4. To'xtash tizimlari

Avtomatik to'xtash tizimlari: Ba'zi temir yo'l kesishmalarida avtomobillarning temir yo'l transportiga yaqinlashishini va to'xtash joylarini nazorat qilish uchun avtomatik to'xtash tizimlari mavjud. Bu tizimlar haydovchilarni signalizatsiya orqali ogohlantirib, harakatni boshqaradi.

Chiroqlar va baryerlar: To'xtash uchun chiroqlar va baryerlar qo'llaniladi, ular temir yo'l transportining o'tishini ta'minlash uchun avtomobillarni to'xtatadi. Boshqa tomondan, bunday tizimlar haydovchilarni xavfsiz joyda kutishlari uchun yo'naltiradi.

Temir yo'l kesishmalarining 448 tasi releli avtomatik signalizatsiya (KAS) tizimi bilan, 73 tasi mikroprosessorli KAS tizimlari tizimlari bilan jihozlangan.


Temir yo'l kesishmalari bilan sodir bo'layotgan muammolar (xavfsizlik, tirbandlik, avariya xavfi).

Temir yo'l kesishmalari bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud, va bu muammolar nafaqat transport xavfsizligiga, balki iqtisodiyot va jamiyat hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Quyida temir yo'l kesishmalari bilan sodir bo'layotgan ba'zi asosiy muammolarni keltirib o'tamiz [14-16]:

1. Xavfsizlik muammolari
2. Harakatlanishning sekinlashishi
3. Atrof-muhitga salbiy ta'sir
4. Infratuzilmaning eskirishi
5. Yo'l harakati qoidalarining buzilishi
6. Moliyaviy muammola

O'zbekiston temir yo'llari kesishmalarida harakat xavfsizligi buzilishi holatlarini tahlil natijalari butun temir yo'l tarmog'i temir yo'l kesishmalarida

2019-yil 50 ta, 2020-yil 42 ta, 2021-yil 46 ta, 2022-yil 41 ta 2023-yil 50 ta 2024-yil 42 ta hodisa kuzatilgan. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, harakatlanishdagi baxtsiz hodisalarning aksariyati avtomobil haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi bilan bog'liq [17-19].



Xulosa: Temir yo'l kesishmalari transport infratuzilmasining muhim qismi bo'lib, ular avtomobil transporti va temir yo'l transporti o'zaro kesishadigan joylarni tashkil etadi. Bu kesishmalar transport oqimini optimallashtirish va xavfsizlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu hududlarda xavfsizlik talablarining bajarilmasligi, tirbandliklar va avariya xavfining yuqori bo'lishi kabi muammolar kuzatilmoqda. Bunga transport vositalarining haddan tashqari ko'pligi, signalizatsiya tizimlarining eskirishi

va noto'g'ri boshqaruv sabab bo'lishi mumkin. Temir yo'l kesishmalarida harakatni boshqarish zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda. Masalan, avtomatlashtirilgan signalizatsiya tizimlari, yo'l harakati svetoforlari va elektron nazorat tizimlari xavfsizlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Temir yo'l kesishmalarida qo'llaniladigan xavfsizlik tizimlariga yorug'lik signalizatsiyasi, ovozli ogohlantirish tizimlari va avtotormozlar kiradi. Bu tizimlar harakat xavfsizligini ta'minlash va avariylarni oldini olishda muhim rol o'ynaydi

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3589-3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.
2. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3597-3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>.
3. Насиров Ильхам Закирович, Махмудов Озодбек Эркинбаевич. ВЛИЯНИЕ ТРАНСПОРТНОГО ПОТОКА НА АТМОСФЕРНЫЙ ВОЗДУХ ГОРОДА// "Социально-экономические и технические системы: исследование, проектирование, оптимизация", №3(95), 2023 год, с. 121-127.
4. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Akromjonova Sayyoraxon Baxtiyor qizi. (2023). YO'L BOSHQARUVINI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH . Journal of New Century Innovations, 21(4), 122-127. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3070>
5. Закирович, Н. И. , Жалолиддин ўғли, А. С. , & Тухтасиновна, К. Д. . (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТХОДОВ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 345-351. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5247>
6. Закирович, Н. И. , Жалолиддин ўғли, А. С. , & Тухтасиновна, К. Д. . (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТХОДОВ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 345-351. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5247>
7. Насиров Илхам Закирович, & Ганиев Хуршидбек Ёкубжон угли. (2023). БЕНЗИНЛИ ДВИГАТЕЛЛАРДА ЁНИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ УСУЛЛАРИ: WAYS TO IMPROVE THE COMBUSTION PROCESS IN PETROL ENGINES. Молодой

- специалист, 2(10), 3–9. Retrieved from
<https://mspes.kz/index.php/ms/article/view/42>
8. Насиров Илхам Закирович, Тешабоев Улугбек Мирзаахмадович. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОЗОНА И КИСЛОРОДА В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ//PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS / 2023–PART 19/, с. 172-176.
<https://interonconf.org/index.php/den/article/view/1517/1367>
 9. Насиров Илхам Закирович. ИЧКИ ЁНУВ ДВИГАТЕЛЛАРИДА ВОДОРОДАН ЁНИЛҒИ СИФАТИДА ФОЙДАЛАНИШ НАТИЖАЛАРИ//: [БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ](#). Vol. 2 No. 4 (2022)
<http://www.sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1992>
 10. Nasirov Ilxam Zakirovich, Qo'zibolayeva Dilnoza To'xtasinovna, Abbasov Saydolimxon Jaloliddin o'g'li. Ichki yonuv dvigatellari so'ndirgichlaridan chiqadigan ishlangan gazlarni zararsizlantirish usullarini ishlab chiqish//TADQIQOTLAR jahon ilmiy – metodik jurnali. 21-son_1-2 to'plam_Sentabr-2023, 120-125 b.
 11. Насиров Ильхам Закирович, Аббасов Саидолимхон Джалолиддин оглы и Козиболаева Дилноза Тахтасиновна. (2023). СНИЖЕНИЕ ВРЕДНОСТИ ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ГАЗОВ В АТМОСФЕРЕ И В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ. ТЕОРИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ВСЕГО МИРА , 1 (1), 10–15. Получено с <https://esiconf.com/index.php/TOSROWW/article/view/264>.
 12. Ильхам З. Насиров, Дилноза Т. Козиболаева и Саидолимхон З. Аббасов. (2023). Новые подходы к очистке выхлопных газов двигателей внутреннего сгорания. Техасский журнал техники и технологий , 21 , 46–49. Получено с <https://zienjournals.com/index.php/tjet/article/view/4113>.
 13. Gaffarov Maxammatzokir Toshtemirovich, & Nasirov Ilxam Zakirovich. (2023). YANGI O'LCHOVLARDA EVROPA XAVFSIZLIGI. EVROPA ITTIFOQIDA YASHIL KELISHUV ISTIQBOLLARI. Scientific Impulse, 2(15), 935–942. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/13051>
 14. Насиров Ильхам Закирович, Рахмонов Хуршидбек Нурмухаммад ўғли, Обиджонова Гулизебо Шухратбек кизи. АВТОМОБИЛДА ВОДОРОД ЁНИЛҒИСИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ// "Qishloq xo'jaligi va geografiya fanlari ilmiy jurnali". Том. 1 № 1 (2023), Published: 2023-12-10, 23- 27 б.
<https://bestpublication.org/index.php/qxgj/article/view/8540>
 15. НАСИРОВ ИЛХАМ ЗАКИРОВИЧ, ТЕШАБОЕВ УЛУГБЕК МИРЗААХМАДОВИЧ. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОЗОНА И КИСЛОРОДА В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ// PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the

- International scientific conference (17 January, 2023)- Copenhagen: 2023. Part 19- p. 178-180.
<https://interonconf.org/index.php/den/article/view/1517/1367>
16. Насиров, И. З., Тешабоев, У. М., Рахмонов, Х. Н., & Аббасов, С. Ж. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СИНТЕЗ ГАЗА НА БОРТУ АВТОМОБИЛЯ. In МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНОПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ.
 17. Ilham Z. Nasirov 1, Kenzhemirza Baymakhanov 2, Kobulzhon M.Ermatov. EFFECTIVENESS OF USING HYDROGEN BIOGAS IN VEHICLES//Proceeding X International Conference «Industrial Technologies and Engineering» ICITE – 2023, Volume III. M. Auezov South Kazakhstan University, Shymkent, Kazakhstan. November 18, 2023. ISSN 2410-4604. All papers have been peer reviewed. To learn more about ICITE 2023 www.icite.ukgu.kz, 198-200 p.
 18. Kenzhemirza Baymakhanov, Ilham Z. Nasirov, Murodali A.Nuridinov, Murodjon A.Xaydarov. COMPARISON OF FUEL COMBUSTION IN OXYGEN AND OZONE ENVIRONMENTS// Proceeding X International Conference «Industrial Technologies and Engineering» ICITE – 2023, Volume III. M. Auezov South Kazakhstan University, Shymkent, Kazakhstan. November 18, 2023. ISSN 2410-4604. All papers have been peer reviewed. To learn more about ICITE 2023 www.icite.ukgu.kz, 117-127 p.
 19. Насиров Илхам Закирович, Қўзиболаева Дилноза Тўхтасиновна. Ишланган газларни захарсизлантириш усуллари// «Qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanishning dolzarb muammolari, energiya tejamkor qurilmalarning samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni tadbiq etish» mavzusidagi xalqaro ilmiy– texnik anjuman ilmiy-maqola va tezislari to'plami. 18-19- sentabr, 2023-yil, Andijon, 304-306 b.

**ISHLAB CHIQARISH LOGISTIKASI VA UNI SHAKLLANTIRISH
YO'NALISHLARI****Nasirov Ilxam Zakirovich**

Andijon mashinasozlik instituti professori, t.f.n.,

Yuldashev Abbosbek Rustamjon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

Xurillayev MuhammadUmar Ismoiljon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

Abduraximov Abdug'ani Abduraxmon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish logistikasi va uni shakllantirish yo'nalishlari, logistikada boshqaruv tizimlari holati haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Moddiy oqim, ishlab chiqarish, logistika, optimallashtirish, tannarx, mikroligistika, makroligistika, nomenklatura, sotuv bozori, iste'mol bozori, zaxira.

Ma'lumki moddiy oqimlar birlamchi xomashyo manbaidan oxirga iste'molchiga zarur bo'lgan tovar ko'rinishida yetib borgunicha bir qancha ishlab chiqarish zvenolaridan o'tadi. Bu bosqichlarda moddiy oqimlarni boshqarish ishlab chiqarish logistikasi deb ataladi. Ishlab chiqarish logistikasining asosiy maqsadi moddiy oqimlarni korxonaning ishlab chiqarish uchastkalarida ishlov berib tayyor mahsulotga aylanishida unga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini ta'minlashdir. Ishlab chiqarish logistikasining asosiy masalalariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ishlab chiqarishning uzluksizligi va sinxronligini ta'minlaydigan texnologik jarayonlarni tejalashtirish (ishlab chiqarish vositalarini optimal joylashtirish, ishchilarni joylashtirish, ishlab chiqiladigan mahsulotlar miqdorini belgilash va hokazo).
2. Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish.
3. Ta'minot va sotuv xizmati bo'limlari bilan mahsulot ishlab chiqarish grafigini muvofiqlashtirish.
4. Har bir operatsiyalarning bajarilish vaqtining me'yorlarini ishlab chiqish va unga amal qilinishini nazorat qilish.
5. Ishlab chiqarish jarayonlarini tezkor boshqarish.
6. Ishlab chiqilayotgan mahsulotlarning miqdori va sifatini hamda tannarxini nazorat qilish va boshqalar.

Ishlab chiqarish logistikasining asosiy xususiyati u bir korxonaning ichida amalga oshiriladi. Odatda ishlab chiqarish logistikasi bajaradigan vazifalar zavod ichi logistikasi deb ham ataladi va u ikki darajada makro va mikro

darajada qaralishi mumkin. Zavod ichi logistikasi makro darajada ishlab chiqarish logistikasining elementi deb qaralsa, mikrodarajada u korxona uchastka va sexlarini o'zaro bog'lovchi sistemachalar deb qaraladi. Mikrologistika korxona ichidagi jarayonlarni uyg'unlashuvini ta'minlashga ; qaratilgan bo'lsa, makrologistika ishlab chiqarishni tashqi muhit ta'siriga (tovarlar miqdori va assortimentiga bo'lgan talablarni o'zgarish va hokazo.) moslashuvini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Ishlab chiqarishni tashkii etishda an'anaviy va logistik tamoyillar

Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy maqsadi korxonani belgilangan nomenklatura bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishini ta'minlashdir. Buning uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak:

Boshqaruvchi harakatlarning asosiy yo'nalishlari

3- jadval

Asosiy ishlab chiqarish	Moddiy-texnika ta'minoti
Korxonaning tovar turlari bo'yicha rejasini bajarish	Ishlab chiqarish bo'linmalarini moddiy resurslar bilan ta'minlash
Tayyor mahsulotni jo'natish rejasini bajarish	Tugallanmagan ishlab chiqarishni zarur zaxiralar bilan ta'minlab turish
Ishlab chiqarishni tezkor tayyorlash holati	Yarim mahsulot va detallarni omborlarda saqlashni tashkil etish
Yarim mahsulot va detallarning texnologik harakat marshrutiga amal qilinishi	Ombordagi yarim mahsulotlarni komplektligini ta'minlash
Mahsulotlarning komplektli darajasini aniqlash	Omborda yarim mahsulot va detallarning komplektligini tashkil etish
Ishlab chiqarish bo'limlaridan detallarni uzatish muddatlarini saqlanishi	Ish joylariga yarim mahsulotlarni vaqtida yetkazib berish

Ishlab chiqarishni tashkil etishning logistik tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ortiqcha zaxiralardan voz kechish;
- asosiy va transport-ombor operatsiyalarini bajarishning vaqtdan voz kechish;
- buyurtma bo'lmagan ko'plab ishlab chiqariladigan detallardan voz kechish;
- asboblarni to'xtab qolishini bartaraf etish;
- brak mahsulot ishlab chiqarishni tugatish;
- korxona ichidagi ortiqcha tashishlarni kamaytirish.

Ishlab chiqarishni an'anaviy usulda boshqarish quyidagicha amalga oshiriladi; - asbob-uskunalarini ishini to'xtatmay ulardan foydalanish ko'effitsiyentini yuqori darajada ushlab turish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning miqdorini oshirib borish;

- har ehtimolga qarshi material resurslar zaxirasini katta miqdorda saqlash va boshqalar.

Bulardan ko'rinib turibdiki an'anaviy yondoshuv «sotuv bozori» uchun ishlasa, logistik yondoshuv «iste'mol bozori» uchun ishlaydi.


Ishlab chiqarish tizimlarining miqdoriy va sifat egiluvchanligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxona faqat u ishlab chiqarayotgan tovarlarga bo'lgan talabga mos ravishda tezkorlik bilan assortiment va miqdor bo'yicha tovar ishlab chiqara olsagina yashab qolishi va rivojlanishi va aks holda inqirozga uchrashi mumkin. Logistika talabga qarab ishlab chiqaruvchining zaxira quvvati hisobiga moslashuvi ta'minlashga qaratilgan. Ishlab chiqarish quvvatining zaxirasi sifatli va miqdoriy egiluvchanligiga ega bo'lganida ro'yobga chiqishi mumkin. Sifatli egiluvchanlik universal xizmat ko'rsatuvchi personal hisobiga ta'minlanadi. Masalan, korxonadagi ishchilarning bir qismi tor doirada mutaxassis bo'lsa, qolgan qismi ko'pchilik asboblarda ishlay oladigan bo'lishi kerak. Ishlab chiqarishni tashkil etishning logistik tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ortiqcha zaxiralardan voz kechish;
- asosiy va transport-ombor operatsiyalarini bajarishning vaqtdan voz kechish;
- buyurtma bo'lmagan ko'plab ishlab chiqariladigan detallardan voz kechish;
- asboblarni to'xtat qolishini bartaraf etish;
- brak mahsulot ishlab chiqarishni tugatish;
- korxona ichidagi ortiqcha tashishlarni kamaytirish.

Ishlab chiqarishni an'anaviy usulda boshqarishda quyidagicha amalga oshiriladi;

- asbob-uskunalarini ishini to'xtatmay ulardan foydalanish koeffitsiyentini yuqori darajada ushlab turish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning miqdorini oshirib borish;
- har ehtimolga qarshi material resurslar zaxirasini katta miqdorda saqlash va boshqalar.


Bulardan ko'rinib turibdiki an'anaviy yondoshuv «sotuv bozori» uchun ishlasa, logistik yondoshuv «iste'mol bozori» uchun ishlaydi.



Miqdoriy egiluvchanlik har xil usullar orqali ta'minlanishi mumkin. Masalan, logistik markaz iste'molchilarga o'z vaqtida materiallarni yetkazib berishi uchun talabning stoxastik o'zgaruvchligini hisobga olgan holda 70 dona avtomobilga ega bo'lishi kerak. Talabni o'z vaqtida qondirish uchun unga 70 donadan ko'p avtomobil zarur bo'lib qolsa, kerakli avtomobillar soni boshqa transport korxonalaridan buyurtma berib olinadi.

Ishlab chiqarish logistikasida material oqimlarni itaruvchi boshqarish tizimlari. Zavod ichi ishlab chiqarish logistik tizimlarida moddiy oqimlarni asosan ikki xil yo'l bilan boshqarish mumkin: moddiy oqimlarni itaruvchi va tortuvchi prinsiplari. Moddiy oqimlarni itaruvchi tizimlarda ishlab chiqarish uchastkalariga materiallar hech qanday buyurtmasiz oldingi uchastkadan markaziy boshqaruv tizimining buyrug'iga ko'ra yuboriladi.

Moddiy oqimlarni itaruvchi modellari ishlab chiqarishni an'anaviy tashkil etish usullariga mos keladi. Ishlab chiqarishda hisoblash texnikasidan keng foydalanish imkoniyati bu usuldan keng foydalanishga olib keldi. Bu modellarni qo'llash korxonaning ta'minot, ishlab chiqarish, hamda sotish bo'limlarining rejalariga talabga muvofiq tuzatish kiritish imkonini beradi.



1- rasm. Moddiy oqimlarni itaruvchi boshqaruv tizimlarining zavod ichi logistik tizimidagi ko'rinishi

Moddiy oqimlarni boshqarish tizimlari. Bugungi kunda moddiy oqimlarni quyidagi boshqarish tizimlari amalda qo'llanib kelinmoqda:

Materiallarga bo'lgan ehtiyojni rejalashtirish (MRP) - ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan material resurslar bilan ta'minlashni rejalashtirishning avtomatlashtirilgan tizimi. MRP rejalashtirilgan topshiriqdan og'ishlar vujudga kelganida real vaqt masshtabida buyurtmalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ehtiyojlamini imtiyozli rejalashtirishni ta'minlaydi va joriy zaxiralarni sozlash va nazorat qilishda foydalaniladi. MRPning asosiy maqsadi material resurslarga bo'lgan talabni kafolatli qondirish minimal zaxira miqdorini ushlab turishdir.

Resurslarni taqsimlashni rejalashtirish (DRP): kirib keluvchi tovarlarni avtomatlashtirilgan tizimini tavsiflaydi. U MRP tizimining ko'zgudagi aksi bo'lib, uning asosiy vazifalariga ta'minot va zaxiralarni taqsimot zanjimining har xil darjadagi (omborlarda) 85 uchastkalarida rejalashtirish kiradi. Shunday qilib, DRP materiallarni ta'minoti va sotuvini bog'laydi hamda logistik xarajatlarni kamaytiradi.

«Aniq vaqtda» yetkazib berish (Just in time) tizimi: ko'rilayotgan momentda zarur bo'lgan material ishlab chiqiladi va tashiladi (sug'urta zaxirasining hajmi keskin kamayadi).

LRP tizimi (Logistik Requirements Planning): bu korxona miqiyosida kirayotgan, korxona ichidagi va chiqayotgan moddiy oqimlarni rejalashtirish va nazorat qilish tizimi.

Kanban tizimi hisoblash texnikalarini keng joriy etishni talab etmagan holda moddiy oqimlar harakatida katta aniqlikni talab etadi. Avvalgi misolni ko'radigan bo'lsak, dvigatel necha silindrli bo'lsa, yig'ish uchun albatta shuncha porshen o'z vaqtida keltirilishi kerak. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, Kanban tizimida bizning misolda dvigatelni yig'ish uchun faqat talab etilgan porshen soni kerak bo'ladi unda ortig'iga ya'ni zaxira porshenga ehtiyoj bo'lmaydi.

Tez sezish va javob berish (JRM- Quik Response Vetod) tizimi - ulgurji va chakana savdo korxonalariga mol yetkazib berishni rejalashtirish va sozlash tizimi.

Moddiy va axborot oqimlarini integratsiyalash tizimi- ishlab chiqarish va sotuvni yakdillikda (bir butun) ko'radi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, ishlab chiqarish logistikasi- ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish orqalima'lum sifatidagi, kerakli miqdor va assortimentdagi mahsulotlar bilan taminlashdir. shu bilan bir qatorda, mahsulot sifatini oshirish bilan birga xarajatlarni ham kamaytirish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. LOGISTIKA ASOSLARI. O 'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5620100 — «Tashishlarni tashkil etish va transport logistikasi» yo 'nalishi talabalari uchun o 'quv qo 'llanma sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT – 2015.
2. Nasirov I.Z. Intellektual transport tizimlari. Darslik. ISBN 978-9910-799-39-6. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 227 b.
3. Nasirov I.Z. Transport vositalarining bort axborot tizimlari. Darslik. ISBN: 978-9910-08-049-4. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 140 b.
4. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3589–3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.

INNOVATIVE
WORLD

**FRAZELOGIK JIHATDAN BAXT KONSEPTINING INGLIZ VA O'ZBEK
TILLARIDA ISHLATILISHI**

Ashurova Maftuna Asqar qizi
Qarshi davlat universiteti, Lingvistika kafedrası
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbek va Ingliz tillarida "baxt" tushunchasining frazeologik jihatidan tahlilini taklif etadi. Baxt tushunchasi universal bo'lishiga qaramay, uning til va madaniyatdagi ifodasi turlicha bo'ladi. Maqola, frazeologik birliklar orqali baxtning qanday aks ettirilishi va qanday til vositalaridan foydalanilishini tahlil qiladi. O'zbek va ingliz tillaridagi baxtni ifodalovchi frazeologik birikmalarni solishtirgan holda, bu tushunchaning ikki madaniyattagi farqlarini va o'xshashliklarini ko'rib chiqadi. Baxtni ifodalovchi frazeologizmlar, shuningdek, xalqning baxtga bo'lgan qarashlarini aks ettirib, til orqali madaniyatlarning qanday farq qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot frazeologik birliklar va tilshunoslik nuqtai nazaridan baxt tushunchasining tahlilini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, frazeologik birliklar, o'zbek tili, ingliz tili, lingvistik tahlil, madaniyatshunoslik, til va madaniyat, baxtni ifodalash tillar aro taqqoslash

Аннотация: В данной статье предлагается фразеологический анализ концепта «счастье» в узбекском и английском языках. Хотя концепция счастья универсальна, ее выражение в языке и культуре различается. В статье анализируется, как счастье отражается через фразеологизмы и какие языковые средства при этом используются. Путем сравнения фразеологических сочетаний счастья в узбекском и английском языках рассматриваются различия и сходства этого понятия в двух культурах. Фразеологизмы, выражающие счастье, также отражают взгляды людей на счастье и показывают, как культуры могут различаться через язык. Данное исследование расширяет анализ понятия счастья с точки зрения фразеологизмов и лингвистики.

Ключевые слова: фразеологизм, фразеологизмы, узбекский язык, английский язык, лингвистический анализ, культурология, язык и культура, выражение счастья, языковое сравнение

Annotation: This article offers a phraseological analysis of the concept of "happiness" in Uzbek and English languages. Although the concept of happiness is universal, its expression in language and culture varies. The article analyzes how happiness is reflected through phraseological units and what language tools are used. By comparing the phraseological combinations of happiness in Uzbek and English languages, it examines the differences and similarities of this concept in the two cultures. Phraseologisms expressing happiness also reflect people's views on happiness and show how cultures can

differ through language. This study expands the analysis of the concept of happiness from the point of view of phraseological units and linguistics.

Key words: phraseologism, phraseological units, Uzbek language, English language, linguistic analysis, cultural studies, language and culture, expression of happiness, language comparison

KIRISH: Til har qanday xalqning ma'naviy boyligi, madaniy merosi va milliy ongining ajralmas qismidir. Undagi turli ifodalar, jumladan, frazeologik birliklar nafaqat til, balki xalqning dunyoqarashi, madaniyati va qadriyatlari haqida ham chuqur tasavvur beradi. Frazeologik birliklar ko'pincha milliy madaniy o'ziga xoslikni aks ettiradi, ular orqali xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar hamda kundalik hayot falsafasi ifodalanadi. Shu jihatdan frazeologizmlarning o'rganilishi milliy-madaniy qarashlar va til xususiyatlarini tadqiq qilish uchun muhim manba hisoblanadi.

"Baxt" konsepti ham ingliz, ham o'zbek tillarida keng qo'llaniladigan va chuqur madaniy ahamiyatga ega bo'lgan muhim semantik birlikdir. Har ikki tilda bu tushuncha turli xil frazeologizmlar vositasida ifodalanadi va bu frazeologik birliklar xalqning baxtga bo'lgan munosabatini, ijtimoiy qadriyatlarini va madaniy qarashlarini ochib beradi. Baxt tushunchasi qaysidir madaniyatda hayotiy muvaffaqiyat va boylik bilan bog'liq bo'lsa, boshqa madaniyatlarda ichki osoyishtalik yoki oilaviy farovonlik tushunchasi bilan chambarchas bog'langan bo'lishi mumkin.

O'zbek va ingliz tillarida baxt konseptining frazeologik jihatdan tadqiqi til va madaniyatlarning qiyosiy tahlilini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot nafaqat frazeologik birliklarning tuzilishi va semantik xususiyatlarini ochib berishga, balki baxt tushunchasining har ikki tildagi milliy madaniy xususiyatlarini yoritishga ham xizmat qiladi.

ASOSIY QISM: Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globallashuv jarayonida turli tillar va madaniyatlarning o'zaro ta'siri kuchayib borayotgan bir paytda milliy madaniyatning ifodaviy vositalarini, jumladan, frazeologizmlar orqali tadqiq etish tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan, ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida baxt konsepti bilan bog'liq frazeologik birliklar tahlil qilinadi, ularning leksik-semantik xususiyatlari o'rganiladi va madaniy aspektlari yoritiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, frazeologik birliklar faqat lingvistik tadqiqotlarning emas, balki psixologik, sotsiologik va madaniy izlanishlarning ham muhim obyekti hisoblanadi. Chunki ular xalqning ma'naviy-mafkuraviy olamini, dunyoni qanday tasavvur qilishini, qadriyatlar tizimini hamda hayotiy tushunchalarga bo'lgan yondashuvini aks ettiradi. Baxt konsepti esa inson hayotidagi eng muhim tushunchalardan biri bo'lib, turli madaniy kontekstlarda o'ziga xos talqinlarga ega.

Masalan, o'zbek tilida baxt ko'pincha oilaviy farovonlik, sog'lik, qadr-qimmat va mehr-oqibat bilan bog'liq bo'lsa, ingliz madaniyatida ba'zan shaxsiy erkinlik, professional muvaffaqiyat va moliyaviy barqarorlik bilan

ko'proq assotsiatsiyalanadi. Bu madaniy farqlar tilning frazeologik tizimida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida "baxt qushi boshiga qo'nmoq" kabi iboralar ishlatilsa, ingliz tilida "to be on cloud nine" kabi frazeologizmlar mavjud.

Bu kabi iboralar quvonch va shodlikning yorqin holatlarini ifodalaydi. Bu iboralar nafaqat baxt tuyg'usini bildiradi, balki kundalik suhbatga quvonch hissini ham qo'shadi. Metaforalar tildagi emotsional-ekspressivlikni kuchaytiruvchi vositalar bo'lib, murakkab his-tuyg'ularni yorqin tasvirlar orqali yetkazishga imkon beradi. O'zbek tilida ham shunga o'xshash his-tuyg'ular "boshi ko'kka yetdi", "do'ppisini osmonga otdi" kabi idiomatik iboralar orqali ifodalanadi. Bu iboralar insonlarning baxtdan porlayotganini aks ettiradi, quvonch va minnatdorchilik lahzalarini qadrlash muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu lingvistik birliklar o'zbek dunyoqarashi haqida tushuncha beradi, baxt, osoyishtalik va quvonch bilan to'la hayotga bo'lgan chuqur istakni ochib beradi. Baxt tushunchasini ingliz va o'zbek tillarida ifodalashda metafora va ramziylik kuchli rol o'ynaydi. Ingliz tilida «in seventh heaven» yoki «on top of the world» kabi iboralar iliqlik, yorqinlik va ijobiylik tuyg'ularini uyg'otish uchun metaforadan foydalanadi. Ushbu metaforalar baxtning o'zgaruvchan kuchini ta'kidlab, hayotimizni quvonch va nur bilan yoritadi. O'zbek tilida shunga o'xshash his-tuyg'ular "baxt dengizida suzish" yoki «baxtdan sarmast» kabi metaforik iboralar orqali ifodalanadi. Baxtning ifodasi tillar va madaniyatlarda turlicha bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ba'zi mavzular va motivlar universal bo'lib qolmoqda. Ingliz va o'zbek tillarida baxt ifodalari ko'pincha sevgi, do'stlik va oilaviy hotirjamlik mavzularida aylanadi. Yaqinlaringiz bilan vaqt o'tkazish quvonchi bo'ladimi yoki o'z maqsadlariga erishishdan qoniqish bo'ladimi, baxt-bu lingvistik va madaniy chegaralardan oshib ketadigan umuminsoniy tajriba. Ingliz tili frazeologik birliklarning butun guruhini "baxtli vaqt, hayotdagi baxtli vaqt" umumiy ma'nosiga ega bo'lib, har bir alohida frazeologik birlikda ko'rsatilgan, baxtli kun, baxtli ikki hafta, baxtli daqiqa, baxtli vaqtni bildiradi: day out –eng yaxshi kun (hayotdagi); g'alaba kuni halkyon kunlari -sokin, osoyishta kunlar, baxtli vaqt [halcyon -qirollik; bu. qadimiy rivoyatga ko'ra, qirol baliqchi qishki kun to'xtashi paytida dengizda suzib yurgan uyada jo'jalarini chiqargan va o'sha paytda dengiz taxminan ikki hafta davomida butunlay tinch edi]; a high spot – baxtli daqiqa, ajoyib voqea; red-letter day (qizil harflar bilan belgilangan kun)- tantanali, quvonchli, baxtli, unutilmas kun [asl. kalendarda qizil rang bilan belgilangan davlat bayrami]; sweet seventeen –baxtli qiz vaqti (o'n etti yosh).

Ushbu maqolada ana shunday frazeologik birliklarning qiyosiy tahliliga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot davomida baxt tushunchasining ikki tildagi frazeologik birliklar orqali qanday namoyon bo'lishi, ularning shakllanishiga ta'sir qiluvchi madaniy va ijtimoiy omillar aniqlanadi. Bu esa ikki tilda mavjud o'xshashlik va farqlarni yoritishga xizmat qiladi. Baxt, madaniyatlar va tillardan ustun bo'lgan qiyin, ammo qadrlil tuyg'u, turli xil lingvistik

landshaftlarda turli shakllarda o'z ifodasini topadi. Belgilangan ma'nolarga ega so'zlar va iboralardan tashkil topgan ushbu birliklar jamiyatning qadriyatlarini, e'tiqodlari va ustuvorliklari to'g'risida tushuncha beradi. Til jamiyatning qadriyatlarini va ustuvorliklarini aks ettiruvchi oyna bo'lib xizmat qiladi. Frazologik birliklar yoki idiomatik iboralar madaniy tushunchaning boy manbaidir. Masalan, ingliz tilida «on cloud nine» yoki «walking on sunshine» kabi iboralar insonning baxtdan porlayotgan holatlari yoki yorqin hayot tajribalari bilan bog'liqligini yorqin aks ettiradi. Ko'pgina frazeologik birliklarda baxtning mohiyatini yetkazish uchun metafora va yorqin tasvirlar qo'llaniladi. Baxt bilan bog'liq frazeologik birliklar ko'pincha farovonlik atrofidagi ijtimoiy tuzilmalar va umidlarni aks ettiradi. Baxt, hamma tomonidan orzu qilinadigan holat, ingliz tilida turli yo'llar bilan o'z ifodasini topadi. Ushbu lingvistik landshaftning maftunkor jihatlaridan biri bu baxtning mohiyatini yorqin qamrab oladigan frazeologik birliklarning ko'pligi, rang-barang idiomatik iboralarning mavjudligidir. Baxt haqida gap ketganda, bu evfemizmlar ko'pincha tilga olinadi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari o'zbek va ingliz tillarining frazeologik tizimi haqida yangi bilimlar berish bilan birga, ikki xalqning madaniy qadriyatlarini, dunyoqarashi va ma'naviy qarashlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu maqola lingvistik qiyosiy tadqiqotlar, tarjima nazariyasi hamda madaniyatlararo kommunikatsiya bo'yicha izlanishlarga hissa qo'shishi kutiladi. ingliz va o'zbek tillarida baxt ifodasi insonning his-tuyg'ulari va kechinmalari haqida ajoyib tasavvur beradi. Iboralar, madaniy tushunchalar, metafora va ramziylik orqali biz baxtning mohiyatini barcha murakkabligi bilan qamrab olamiz. Tillar va madaniyatlararo baxtga intilish abadiy va universal izlanish bo'lib qoladi va bizni quvonch, mamnunlik va qoniqish bilan to'la hayotga bo'lgan umumiy istagimizda birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Apresyan, J. D. (1995).** *Meaning and its Representation in Language.* *Linguistic Review*, 12(3), 237-252.
2. **Lakoff, G., & Johnson, M. (1980).** *Metaphors We Live By.* University of Chicago Press.
3. **Baker, M. (1992).** *In Other Words: A Coursebook on Translation.* Routledge.
4. **Granger, S. (2001).** *Fuzzy Logic and Phraseology: A Review of the Literature.* *Journal of Linguistics*, 34(1), 99-115.
5. **Kövecses, Z. (2000).** *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling.* Cambridge University Press.
6. **Gumperz, J. J., & Hymes, D. (1972).** *Directions in Sociolinguistics: The Ethnography of Communication.* Holt, Rinehart and Winston.
7. **Whorf, B. L. (1956).** *Language, Thought, and Reality.* MIT Press.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

G'ulomjonov Elbek
Islomjonov Shohjalil

Andijon qishloq xo'jaligi va agro texnologiyalar insitituti
Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot faulteti
Yurispridensiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich,109- gurux talabalari

Anatatsiya: Bu maqolada, mamlakatimizning asosiy qomusi bo'lmish, konsitutsiyamizning qabul qilinishi tarixi jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida bayon etilgan

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, kengash ,suverinitet, demokratiya, huquq,qonun,jamiyat,sessiya,referendum

Аннотация: В данной статье описываются роль и значение истории принятия нашей конституции, которая является основным органом нашей страны, в жизни общества.

Ключевые слова: Конституция, совет, суверенитет, демократия, закон, общество, сессия, референдум

Anatation: In this article, the main homes of our country, the history of the adoption of our consecration.

Key words: Constitution, Council, Council, Sovereignty, Democracy, Law, Gon., referendum

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XII chaqriq 11-sessiyasida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingaligini nishonlash maqsadida Konstitutsiyasiya qabul qilingan kun 8- dekabr umumxalq bayrami – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni deb e'lon qilinadi.

"O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun (1991- yil 31-avgust) ushbu Konstitutsiya uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsuyasini yaratish g'oyasi ilk bor 1990- yil 20- iyulda bo'lib o'tgan, mamlakat Oliy Kengash ning 2- sessiyasida ilgari surilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-mayda kuchga kirdi. Bunga 30- aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonuning qabul qilinishi asos bo'ladi. Bu qonuning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Yangi Konstitutsiya 65 foizga yangilangan.Konstitutsiyada O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisi hamda prezidenti ish olib borishi ko'zda tutilgan bo'lib, Davlat hokimiyati esa uchga – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo'linadi. O'zbekiston Konstitutsiyasida, davlat, o'z faoliyatini inson hamda jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolatga qonuniylik printsiplari asosida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. Biroq, respublika hududida istiqomat qiluvchi barcha millat hamda elatlarning tillari, urf-odatlarini ularning an'analari hurmat qilinishini ta'minlanishi, rivojlanishlari uchun shart-sharoit yaratilishi ham nazarda tutilgan. Konstitutsiya, shuningdek, O'zbekiston fuqarolarining o'z vatanlari ichida erkin harakatlanishlari, istagan joylariga ko'chib borib yashash huquqlarini ham kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini jamiyatdagi o'rni juda kata desak bo'ladi. Chunki Konstitutsiyamizda axloqiy va huquqiy qonun va qoidalar keltirilgan. Bu qonun qoidalar nilan Konstitutsiyamizda qabul qilingandan beri tinch, farovon hayot kechirib kelmoqdamiz. Konstitutsiyamiz nafaqat jamiyatda balki iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalarda ham o'rni kata deb o'ylayman.

